XALQ DEPUTATLARI DANG‘ARA TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 18-oktabr VII-15-115-11-155-K/25 Dang‘ara tumani

Dang‘ara tumanidagi aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini 2026-yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

“Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 9-bobi hamda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan, 2026-yil uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Dang‘ara tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Quyidagilar:

a) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2025-yil 23-iyundagi PF–98-son Farmoniga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish vakolatlari Xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga o‘tkazilganligi;

b) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mehnat munosabatlari va kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda ish beruvchilarni rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 4-avgustdagi PF-126-son Farmoniga asosan:

xo‘jalik yurituvchi subyektlar faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar, kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari,

muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim shaxslar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar uchun ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantirilishi, bunda majburiy zaxiralash xodimlar umumiy sonining 3 foizidan oshmasligi hamda xodimlari soni 100 nafardan ortiq bo‘lgan tashkilotlarga nisbatan qo‘llanilishi;

budjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar faqat nogironligi bo‘lgan shaxslar, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar, kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari, muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim shaxslar, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan hamda odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantirilishi, bunda majburiy zaxiralash xodimlar umumiy sonining 7 foizidan oshmasligi hamda xodimlari soni 20 nafardan ortiq bo‘lgan tashkilotlarga nisbatan tatbiq etilishi belgilanganligi rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Dang‘ara tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi hamda Dang‘ara tuman “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazining Dang‘ara tumani hududidagi tashkilotlar bo‘yicha 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ish o‘rinlarini belgilash to‘g‘risidagi **quyidagi** takliflari ma’qullansin:

Xodimlar soni 20 nafardan ortiq bo‘lgan davlat tashkilotlarida majburiy zaxiralanadigan ish o‘rinlari soni xodimlar umumiy sonining yetti foizidan oshmagan miqdorda hamda xodimlar soni 100 nafardan ortiq bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarda (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) majburiy zaxiralanadigan ish o‘rinlari soni xodimlar umumiy sonining uch foizidan oshmagan miqdorida kelgusi yil uchun 209 ta ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish, jumladan:

Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun 25,7 foiz (53 kishi);

oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar uchun 0,9 foiz (2 kishi);

kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari uchun 71,9 foiz (151 kishi);

muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar uchun 0,4 foiz (1 kishi);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar uchun 0,9 foiz (2 kishi);

odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun 0 foiz (0 kishi) miqdorida ish o‘rinlarining majburiy zaxiralari shakllantiriladi.

3. 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish maqsadida **quyidagilar:**

Davlat tashkilotlari (budjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli ro‘yxati **1-ilovaga** muvofiq;

Xodimlarining ro‘yxatdagi o‘rtacha yillik soni yuz nafardan ortiqni tashkil etadigan xo‘jalik yurituvchi subyektlar (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli ro‘yxati **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar rahbarlari:

Zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida yigirma besh foizi miqdorida zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining tayyorligini yil boshlanishidan oldin o‘n kundan kechiktirmay ta’minlashi, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar Dang‘ara tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini xabardor qiladi;

ish o‘rinlarining qolgan qismini zaxiraga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlashi, bu haqda Dang‘ara tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini birinchi chorak tamom bo‘lganidan so‘ng, 10 kundan kechikmay xabardor qiladi;

ishga joylashtirish to‘g‘risida Dang‘ara tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 5-sanasiga qadar axborot taqdim etadi.

Zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarini saqlash shartlari O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 40-moddasiga muvofiq belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bandligini ta’minlash uchun moliyaviy yordamlar ajratish tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 14-fevraldagi PQ-64-son qaroriga muvofiq aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalaridan bo‘lgan shaxslarni ish o‘rinlarining belgilangan eng kam sonidan ortiq miqdorda ishga qabul qilish uchun ish beruvchilarga – har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida subsidiya mablag‘larini to‘lab berilsin.

6. O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonuni 3-, 13-, 34-, 38-, 39-, 40-, 41-moddalariga asosan aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalariga eng kam miqdordagi ish joylarini yaratish yuzasidan qabul qilingan mazkur qarorni bajarmaganlik uchun ish beruvchilar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Nizomning 21-bandi, 2-qismiga asosan, muhtojlar uchun ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish bo‘yicha Dang‘ara tumani Kengashining qarori bajarilmaganligi uchun jarima to‘lash tashkilotni zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonini yaratish bo‘yicha majburiyatdan ozod qilmaydi.

8. Dang‘ara tumani Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i (O‘.Xusanov):

Besh kun muddatda ushbu qaror nusxasini 1-va 2-ilovalarda ko‘rsatilgan tashkilotlar rahbarlarining e’tiboriga yetkazsin va ushbu qaror bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlasin.

Aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha xalq deputatlari Dang‘ara tumani Kengashining ushbu qarori bajarilmaganda, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilotlarning mansabdor shaxslariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlikka tortish ta’minlansin.

9. Tuman hokimligining axborot xizmati (U.Usmonov):

Mazkur qaror ommaviy axborot vositalarida e’lon qilish hamda hokimlikning rasmiy veb- saytiga joylashtirish tavsiya etiladi.

10. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari I.Usmonov va mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy isloxotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiya raisi D.Dadamirzayevlar zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi TOJIXAKIMOV SHUXRATJON NURMUXAMMADOVICH

Xalq deputatlari Dang‘ara tumani Kengashining
2025-yil 18-oktabrdagi
VII-15-115-11-155-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Dang‘ara tumanida 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun davlat tashkilotlari (budjet tashkilotlari va davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli
RO‘YXATI

T/r	Tashkilot nomi	Tashkilotning STIRI	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	shundan,	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari soni	Shu jumladan:					
				nogironligi bo‘lgan shaxslar soni		nogironligi bo‘lgan shaxslar	oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar	Kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari	muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar	jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslar	odam savdosidan jabrlangan shaxslar
	Dang’ara tumani		**8523**	**52**	**205**	**51**	**2**	**149**	**1**	**2**	**0**
1	Tuman Tibbiyot birlashmasi	200165010	2042	15	21	15	1	5			

2	DANG‘ARA TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 27-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206884379	143		2			2	0		
3	DANG'ARA TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 29-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206884386	93		2			2	0		
4	DANG`ARA TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 33-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206884426	79		2			2	0		
5	DANG`ARA TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 2-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206884164	94	1	3	1		2	0		
6	DANG`ARA TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 5-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	203218241	141	2	3	2		1	0		

7	DANG`ARA TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI 13-SONLI UMUMIY TURDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	207008112	52	1	2	1		1	0		
8	DANG'ARA TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 40-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206884497	65	1	2	1		1	0		
9	DANG`ARA TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI 19-SONLI UMUMIY TURDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	207042150	52		2			2			
10	DANG`ARA TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 38-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206884473	91		2			2			
11	DANG`ARA TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI 7-SONLI UMUMIY TURDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	207089844	64		2			2			

12	DANG`ARA TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 10-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206884236	100		3			3			
13	DANG`ARA TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 30-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206884394	110	1	3	1		2	0		
14	DANG`ARA TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI 5-SONLI UMUMIY TURDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	207032338	79	2	3	2		1	0		
15	DANG`ARA TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI 17-SONLI UMUMIY TURDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TALIM TASHKILOTI	207031734	64		2			2			
16	DANG'ARA TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 14-SONLI CHET TILLARIGA IXTISOSLASHTIRILGAN DAVLAT UMUMTALIM MAKTABI	206884275	98		2			2	0		

17	DANG`ARA TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI 27-SONLI UMUMIY TURDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	207090084	50		3	1		2			
18	DANG`ARA TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 4-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206884189	120		2			2			
19	DANG`ARA TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI 10-SONLI UMUMIY TURDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	207090124	44	1	2	1		1	0		
20	DANG`ARA TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI 39-SONLI UMUMIY TURDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	305586841	86		2			2			
21	DANG`ARA TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI 52-SONLI UMUMIY TURDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	207306074	62	1	2	1		1	0		

22	DANG`ARA TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI 32-SONLI UMUMIY TURDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	305609225	58		2			2	0		
23	DANG`ARA TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI 45-SONLI UMUMIY TURDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	305634876	67		2			2			
24	O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARG`ONA VILOYAT SPORT BOSHQARMASI DANG`ARA TUMANI SPORT MAKTABI	207237983	71		2			2	0		
25	DANG`ARA TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TALIMI BO'LIMI 29-SONLI UMUMIY TURDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	305546645	32	1	2	1		1	0		
26	DANG`ARA TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI 3-SONLI UMUMIY TURDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	207042579	38	1	2	1		1	0		

27	DANG`ARA TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI 54-SONLI UMUMIY TURDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	308056485	59		2			2			
28	DANG`ARA TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 22-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206942844	105	1	2	1		1	0		
29	DANG`ARA TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 32-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206884419	75		2			2	0		
30	DANG`ARA TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI 34-SONLI UMUMIY TURDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	305609637	36	1	2	1		1	0		
31	DANG`ARA TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 7-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206884204	73		2			2			

32	O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI FARG`ONA VILOYATI MADANIYAT BOSHQARMASI TASARRUFIDAGI DANG`ARA TUMANI 27-BOLALAR MUSIQA VA SA'NAT MAKTABI	207190364	68	1	2	1		1	0		
33	DANG`ARA TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 28-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	203153127	126	1	2	1		1	0		
34	DANG`ARA TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI 15-SONLI UMUMIY TURDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	207089614	38	1	2	1		1	0		
35	DANG`ARA TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI 26-SONLI UMUMIY TURDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	207090440	48		2			2	0		
36	DANG`ARA TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI 41-SONLI UMUMIY TURDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	305608084	43		2			2	0		

37	DANG`ARA TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 23-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206884347	79		2			2	0		
38	DANG`ARA TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 15-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206884283	116	1	1			1	0		
39	DANG'ARA TUMANI SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIK OSOYISHTALIK VA JAMOAT SALOMATLIGI BO`LIMI	200164914	71	1	1			1	0		
40	DANG`ARA TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI 8-SONLI UMUMIY TURDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	207031710	99		2			2	0		
41	DANG`ARA TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TALIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 35-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206884441	79		2			2			

42	DANG`ARA TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI 30-SONLI UMUMIY TURDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	305586762	50		2			2	0		
43	DANG`ARA TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 6-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206884196	104	1	2	1		1	0		
44	DANG`ARA TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 13-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206884268	77		2			2	0		
45	Dang`ara tumani barkamol avlod bolalar maktabi	207123571	69		2			2	0		
46	DANG'ARA TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO`LIMI TASARRUFIDAGI 1-DAVLAT IXTISOSLASHTIRILGAN UMUMTALIM MAKTAB-INTERNATI	201816401	54	1	2	1		1	0		
47	DANG`ARA TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 36-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206884458	97		2			2			

48	"DANG`ARA TUMAN YO`LLARDAN FOYDALANISH" Davlat muassasasi	200166175	94		2			1	1		
49	DANG`ARA TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 24-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	308914160	77	1	2	1		1	0		
50	DANG`ARA TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 8-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206884212	63		3			3	0		
51	DANG`ARA TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 39-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206884480	90		3			3	0		
52	DANG`ARA TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 26-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206884362	131		2			2	0		
53	DANG'ARA TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 17-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206884308	81	1	3	1		2	0		

54	DANG`ARA TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 34-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206884434	130		3			3			
55	DANG`ARA TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI 2-SONLI UMUMIY TURDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	207090425	50		2			2			
56	DANG`ARA TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI 4-SONLI UMUMIY TURDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	207008096	80		2			2	0		
57	DANG`ARA TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 20-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206884323	95		2			2			
58	DANG`ARA TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI 28-SONLI UMUMIY TURDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	207008136	69		2			2	0		

59	DANG'ARA TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 18-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	203178245	83	1	3	1		2			
60	DANG`ARA TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 21-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206884330	51		2			2	0		
61	DANG`ARA TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI 6-SONLI UMUMIY TURDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	207008104	36	1	2	1		1	0		
62	DANG`ARA TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI 23-SONLI UMUMIY TURDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	207089836	40	1	2	1		1	0		
63	DANG'ARA TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 9-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206884229	126	1	3	1		2	0		

64	DANG'ARA TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 12-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206884251	130		2			2			
65	DANG`ARA TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI 18-SONLI UMUMIY TURDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	207089883	51		2			2	0		
66	DANG`ARA TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 19-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206884315	94	1	2	1		1	0		
67	DANG`ARA TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 37-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206884465	63		2			2	0		
68	O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI FARG`ONA VILOYATI YOSHLAR ISHLARI BOSHQARMASINING DANG`ARA TUMANI YOSHLAR ISHLARI BO`LIMI	309219938	49		2			2	0		
69	DANG`ARA TUMAN 2-SON POLITEXNIKUMI	200165066	100	1	3	1		2	0		

70	DANG`ARA TUMAN 3-SON POLITEXNIKUMI	206930542	71	1	2	1		1	0		
71	DANG`ARA TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI 37-SONLI UMUMIY TURDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	305546724	49	1	2	1		1	0		
72	DANG`ARA TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI 49-SONLI UMUMIY TURDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	305983245	49		2			2	0		
73	DANG'ARA TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 3-SONLI KIMYO-BIOLOGIYA FANIGA IXTISOSLASHTIRILGAN DAVLAT UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206884172	66		2			2	0		
74	DANG`ARA TUMAN 1-SON POLITEXNIKUMI	203348104	157	1	3	1		2	0		
75	DANG`ARA TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 11-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206884244	75	1	3	1		2	0		

76	DANG`ARA TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI 48-SONLI UMUMIY TURDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	305739333	68	1	3	1		2	0		
77	DANG`ARA TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI 55-SONLI UMUMIY TURDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	308809053	37	1	2	1		1	0		
78	DANG`ARA TUMANI MADANIYAT BO`LIMI-TUMAN MADANIYAT MARKAZI	200165027	68		3		1	2	0		
79	DANG`ARA TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 1-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206884157	102	1	3	1		2	0		
80	DANG`ARA TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 16-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206884290	78		3			3	0		
81	DANG'ARA TUMAN MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI TASARRUFIDAGI 31-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	206884402	102	1	3	1		2			

82	Dang'ara tumani obodonlashtirish bo'limi	206940997	214		4			2	0	2	
83	DANG`ARA TUMANI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI BO'LIMI 31-SONLI UMUMIY TURDAGI DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI	305607949	43		2			2	0		

Xalq deputatlari Dang‘ara tumani Kengashining
2025-yil 18-oktabrdagi
VII-15-115-11-155-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Dang‘ara tumanida 2026-yilda aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish uchun xodimlarining ro‘yxatdagi o‘rtacha yillik soni yuz nafardan ortig’ini tashkil etadigan xo‘jalik yurituvchi subyektlar (davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo‘lgan korxonalar bundan mustasno) tomonidan majburiy zaxira qo‘yiladigan ish o‘rinlarining manzilli
RO‘YXATI

T/r	Tashkilot nomi	Tashkilotning STIRI	Shtat jadvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	shundan,	Kelgusi yil uchun zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari soni	shu jumladan:			
				nogironligi bo‘lgan shaxslar soni		nogironligi bo‘lgan shaxslar	oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxslar	Kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning a’zolari	muqobil joylashtirish shakllarida tarbiyalangan yetim, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan shaxslar
1	**Dang‘ara tumani**		**133**	**2**	**4**	**2**	**0**	**2**	**0**
1	"MUSAVARTEX" Mas`uliyati cheklangan jamiyati	301379168	133	2	4	2		2	